

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



ELEKTROTEXNIKA, ELEKTRONIKA VA ELEKTRYURUTMALAR
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lif
Ta'lif sohasi:	110000 – Ta'lif
Ta'lif yo'nalishi:	60111300 – Texnologik ta'lif

Fan/modul kodi EEE1304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi Elektrotexnika, elektronika va elektryurutmalar	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 60	Mustaqil ta'lim (soat) 60	Jami yuklama (soat) 120
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga zamonaviy texnika, texnologiyalarning rivojlanayotgan davrida, Elektrotexnika, elektronika va elektryurutmalar fani va uning mehnat turlari bilan mukammal tanishtirish va ularni hayotga tadbiq eta olishini o'rgatishdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, global darajadagi elektrotexnik hodisa va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, qonuniyatlar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'mi va ahamiyatini ochib berish.</p>			
<p>II. Nazariy qism (ma'ruba mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. O'zgaruvchan tok zanjirlari. Sinusoidal EYUK hosil qilish. Sinusoidal o'zgaruvchan tok haqida asosiy tushunchalar: amplituda, davr, chastota, faza. Elektromagnit induksiya qonuni. O'zgaruvchan tokning effektiv va o'rtacha qiyamatlari. Aktiv iste'molchi bo'lgan ideal o'zgaruvchan tok zanjiri sxemasi va vektor diagrammasi. Zanjir uchun oniy tok, kuchlanish va quvvat. Induktiv qarshilikli ideal zanjir. Zanjir uchun oniy tok kuchlanishi va quvvat ifodalari, ularning grafiklari va vektor diagramma. Sig'im qarshilikli o'zgaruvchan tok ideal zanjir uchun oniy tok, kuchlanish va quvvat, ularning grafiklari va vektor diagrammalari. Om qonuni. R, L va C bo'lgan ketma-ket va parallel ulangan o'zgaruvchan tok zanjirlarida kuchlanishlar, qarshiliklar va quvvatlar uchburchaklari, ularning vektor diagrammalari. Tok va kuchlanishlar rezonansi. Uch fazali tok va uni hosil qilish. Uch fazali tok generatorining tuzilishi va ishlash prinsipi. Tok va EYUK larning tenglamalari, grafiklari va vektor diagrammalari. Uch fazali tokning aylanuvchan magnit maydonini tuzilishi va belgilanishi. Generator cho'lg'amlarini yulduz usulida o'chash. Bog'lanmagan va bog'langan uch fazali sistema. Generator cho'lg'amlarini, yulduz va uchburchak usulida ulash. Liniya va faza kuchlanishlari, ularning vektor diagrammalari.</p>				

2-mavzu. O'zgarmas va o'zgaruvchan tok elektr mashinalari.

Elektr transformatorlarning tuzilishi, ishlash prinsipi, transformatsiya koefitsienti, Transformatorning ishlash rejimlari. Transformatorning iste'molchi bilan ularish sxemasi, uning vektor diagrammasi va differensial tenglamalari. Cho'lg'amlarning aktiv va induktiv, ikkilamchi cho'lg'aming keltirilgan tok ifodalari. Transformatorlarda energiya isroflari va ularning foydali ish koefitsienti. Transformatorlarning parallel ishlashi. O'lhash transformatorlari. Elektr energiya hosil qilish, uzatish va taqsimlash sxemalari. Sinxron va asinxron elektr dvigatellar. Dvigatel-generator mashinaning qaytuvchanligi. Qisqa tutashgan va faza rotorli asinxron dvigatellar. Asinxron dvigateling aylanituvchi momenti. Sirpanish. Asinxron dvigatelda quvvat isroflari. Dvigateling FIKi. O'zgarmas tok mashinalarining tuzilishi va ishlash prinsipi. O'zgarmas tok generatorining elektromagnit momenti. Yakor reaksiyasi. Tok kommutatsiyasi. Kontaktorli va magnitli ishga tushirgichlar.

3-mavzu. Elektr o'lhash asboblari va elektr o'lhashlar.

Elektr o'lhash haqida asosiy tushunchalar. Elektr o'lhash asboblari va elektr o'lhashlar, asboblarning ishlash prinsipi, o'lhash vaqtidagi vaziyatlari, guruhlari, o'lchanishi lozim bo'lgan kattalik turlari o'lchanadigan tok, kuchlanish va qarshiliklar kattaliklari. Magnitoelektrik tizimli asboblari va ularning sxematik tuzilishlari. Amper kuchi ta'siri natijasida hosil bo'lgan burovchi moment, asbobga bog'liq bo'lgan o'zgarmas kattaliklar, strelkaning buralish burchaklarining ifodalari. Asboblarning kamchiliklari va afzalliklari. Elektromagnit tizimli asboblar va ularning sxematik tuzilishlari. Asbobda hosil bo'lgan burovchi moment, o'zgarmas kattaliklar, strelkaning buralish burchagini ifodasi. Asboblarga tegishli kamchiliklari va afzalliklari. Elektrodinamik tizimli asboblar va ularning sxematik tuzilishlari, asboblarda hosil bo'lgan burovchi moment. Elektrodinamik vattmetr. Vattmetri elektr zanjiriga ulash sxemasi. Induksion tizimli asboblarning sxematik tuzilishlari. Bir fazali induksion schetchik. Aylanuvchan, aks etfiruvchi momentlar, aylanish tezligi, sarflangan energiya va schetchik doimiysi kattaliklarning ifodalari. Ikki elementli bir diskli schetchikni zanjirga ulash sxemasi Detektorli va termoelektrik tizimli asboblar. Bir yarim davrli va ikki yarim davrli detektorli asboblarning sxematik tuzilishlari. Termoelektrik ampermetr va voltmetr

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zgaruvchan tok zanjirlarini o'rghanish.
2. Uch fazali tok zanjirlarini hisoblash.
3. O'zgaruvchan tok zanjirlarida rezonansni o'rghanish.
4. Elektr zanjirlarida energiya balansini aniqlash.
5. Bir fazali transformatorini ish rejimlarini o'rghanish.
6. Uch fazali transformatorning ish rejimlarini hisoblash.
7. O'lchov transformatirlarining kattaliklarini hisoblash.
8. Asinxron elektr dvigatellarining tuzilishini o'rghanish.

9. Sinxron elektr mashinalarini tavsiflarini aniqlash.
10. Parallel qo'zg'otishli elektr mashinasini o'rganish.
11. Ketma-ket qo'zg'otishli elektr mashinasini o'rganish.
12. Elektr o'lhash asboblarining o'lchov mexanizmlarini o'rganish.
13. Elektron voltmetr, ommetr, ampermetr bilan tanishish.
14. Bir va uch fazali zanjir aktiv va reaktiv energiyasini o'lhash
15. Elektr zanjirlaridagi kattaliklarining o'lchov xatoliklarini hisoblash.
16. Uch fazali asinxron dvigatelini magnitli ishga tushirgich yordamida boshqarishni sinash.
17. Past chastotali rezistorli bir va ko'p kaskadli yarim o'kazgichli kuchaytirgichni hisoblash va yig'ishni o'rganish.
18. Yarim o'kazgichli to'g'rilibagichlarni sxemalarini sinash.
19. Bipolar va maydonli tranzistorlarni o'rganish.
20. Akkumulyator batareyalarini zaryadlash va razryadlash usullarini o'rganish.
21. Shiffrator va deshiffratori sxemasi orqali ishlash prinsipini o'rganish.
22. Elektr o'kazgichlarni kerakli kesim yuzasini hisoblash.
23. Iste'molchilar uchun o'kazgich simlarni tanlash.
24. Elektromagnit va issiqlik relelarni o'rganish.
25. Elektr yuritmalmuni boshqarish va ximoya elektr apparatlarini tanlash.
26. Elektr energiyasi sifat ko'rsatgichlarining meeriy ko'rsatgichlarini hisoblash.
27. Xonalarda elektr tarmoqlarini montaj qilishni o'rganish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarini tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatları to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zgaruvchan tok uni hosil qilish va tenglamalari.
2. Tok va kuchlanishlar rezonansi.
3. O'zgarmas tok mashinalari va ularning qo'llanilishi.
4. Kuchaytirgichlar va ularning qo'llanilishi.
5. O'zgarmas tok mashinalarining tuzilishi va ishlash prinsipi.
6. O'zgarmas tok generatorining elektromagnit momenti.
7. Tranzistorlar va ularning qo'llanilishi.

8. Elektromagnit induksiya qonuni.
9. Zanjir uchun oniy tok, kuchlanish va quvvat.
10. Tok va kuchlanishlar rezonansi.
11. Uch fazali tok va uni hosil qilish.
12. Tok va EYUK larning tenglamalari, grafiklari va vektor diagrammalari.
13. Bog'lanmagan va bog'langan uch fazali sistema.
14. Liniya va faza kuchlanishlari, ularning vektor diagrammalari.
15. Transformatorning ishlash rejimlari.
16. Cho'lg'amlarning aktiv va induktiv, ikkilamchi cho'lg'aming keltirilgan tok ifodalari.
17. Transformatorda energiya isroflari va ularning foydali ish koeffitsienti.
18. Transformatolarning parallel ishlashi.
19. O'Ichash transformatorlari.
20. Sinxron va asinxron elektr dvigatellar.
21. Qisqa tutashgan va faza rotorli asinxron dvigatellar.
22. Yakor reaksiyasi. Tok kommutatsiyasi. Kontaktorli va magnitli ishga tushirgichlar.
23. Elektr o'Ichash asboblari va elektr o'Ichashlar.
24. Magnitoelektrik tizimli asboblari va ularning sxematik tuzilishlari.
25. Elektromagnit tizimli asboblar va ularning sxematik tuzilishlari.
26. Elektrodinamik tizimli asboblar va ularning sxematik tuzilishlari.
27. Elektrodinamik vattmetr. Vattmetri elektr zanjiriga ularash sxemasi.
28. Bir fazali induksion schetchik.
29. Detektorli va termoelektrik tizimli asboblar.
30. Termoelektrik ampermeter va voltmetr.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlardan tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.	<p>VII. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'zgaruvchan va o'zgarmas tok zanjirlari tok, elektr energiyasini hosil qilish, o'zatish va taqsimlash o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokga aylantirish, elektron zanjirlarning asosiy elimetlari va ularning klissiqikatsiyasi, elektron qurilmalarning tuzilishi va ishlash prinsipi haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - elektr mashinalarining turlari tuzilishi va ishlash prinsipi, avtomatika elementlari, elektroenergetka rivojlanishining zamонавиyo'nalishlari, elektron qurilmalar elektr sxemalarini tushinish, bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma). - talaba nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, elektrotexnik jarayonlarni tahlil qilish, elektr sxemalari asosida elektromontaj ishlarini bajarish, fanni o'qitish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilishning zamонавиyo uslublarini qo'llay olish haqida malakalarga ega bo'lishi kerak. <p>VIII. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;
4.	

	<ul style="list-style-type: none"> • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tursunov I.G., Eshniyozov U.A., Akylbayev M. “Elektrotexnika, elektronika va elektroo’tkazgichlar”. – Chirchiq.: “CHDPU”, 2023 yil. 2. Dusmuratov M.B. “Olyi ta’limda Elektrodinamikani axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish imkoniyatlari”. – Chirchiq.: “CHDPU”, 2023 yil. <p style="text-align: center;">XI. Qo‘s himcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sharipov SH.A, Jo‘raev YU. “Sanoat elektronika asoslari”. – T.: “Geo fan”, 2009 yil. 2. N.SH.Turdiyev. “Radioelektronika asoslari”, T.: “O‘qituvchi”, 1992 yil. 3. X.Nig’matov. “Radioelektronika asoslari”, T.: “O‘qituvchi”, 1994 yil. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>http://www.edu.uz http://www.gov.uz. www.pedagog.uz www.cspi.uz www.pedagog.uz www.edu.uz www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK) www.zionet.uz - Zyonet axborot-ta’lim resurslari portalı</p>
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “_____” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul: A.Yusubaliyev – ChDPU, “Texnologik ta’lim” kafedrasи professori.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: R.S.Shermuxamedov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Texnologik ta’lim” kafedrasи dotsenti, p.f.n. S.A.Baltabayev – Nizomiy nomidagi TDPU, Texnologik ta’lim metodikasi kafedrasи mudiri, dotsent, p.f.n.</p>

